

AQL VA UNING HUKMLARI

Iqboljon Qambarov Akromjon o'g'li

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom
institutining Islom ilohiyoti, falsafasi va
Moturidiylik ta'limoti mutaxassisligi
bo'yicha 2-bosqich magistranti.

+998 88 870 77 11

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda **aql** tushunchasi mustaqil nazariy masala sifatida tadqiq etiladi. Tadqiqotda aqlning lug'aviy va istilohiy ma'nolari, uning ontologik maqomi hamda bilish jarayonidagi o'rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Aqlning nafsda qoim bo'ladigan idrok quvvati sifatidagi talqini va uni mustaqil mavjudlik sifatida izohlagan yondashuvlar qiyosiy jihatdan ko'rib chiqiladi. Shuningdek, aql orqali hosil bo'ladigan bilimlarning zaruriy va iktisobiy turlarga bo'linishi, ularning shakllanish mexanizmlari hamda tafakkur va istidlolning o'rni yoritiladi. Ishda aqlning ilm hosil qilishdagi ishonchliligi masalasi, aqliy tafakkurda yuzaga keladigan ixtiloflarning sabablari va ularning aql mohiyatiga taalluqli emasligi ilmiy dalillar bilan asoslanadi.

Kalit so'zlar: aql, idrok, tafakkur, zaruriy ilm, iktisobiy ilm, istidlol, bilish nazariyasi.

KIRISH

Insonning bilish faoliyati va tafakkur jarayonida aql markaziy o'rin egallaydi. Aql orqali inson borliqni anglaydi, mavjudotlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qiladi, sabab–oqibat bog'lanishlarini tushunadi hamda bilim hosil qiladi. Shu bois aql masalasi qadimdan falsafa, mantiq va kalom ilmlarining eng muhim mavzularidan biri bo'lib kelgan. Aqlning mohiyati, uning bilishdagi roli, ilm hosil qilishdagi imkoniyatlari va chegaralari borasida turli davrlarda turli yondashuvlar shakllangan.

Islomiy ilmiy an'anada ham aql masalasi alohida e'tibor qaratilgan mavzulardan hisoblanadi. Mutakallimlar, mantiqshunoslar va faylasuflar aqlni ta'riflash, uning

ontologik maqomini aniqlash hamda ilm hosil bo'lishidagi funksiyasini tushuntirishga harakat qilganlar. Natijada aqlga nisbatan turli istilohiy ta'riflar vujudga kelgan: ayrimlari aqlni nafsda qoim bo'ladigan idrok quvvati sifatida talqin qilgan bo'lsa, boshqalari uni mustaqil mavjud bo'lgan javhar deb hisoblaganlar. Bu esa aql masalasining nazariy jihatdan murakkab va ko'p qirrali ekanini ko'rsatadi.

Mazkur ilmiy ishda aql masalasi aynan nazariy-bilish vositasi sifatida tahlil qilinadi. Xususan, aqlning lug'aviy va istilohiy ma'nolari, aql orqali hosil bo'ladigan bilim turlari, zaruriy va iktisobiy ilm tushunchalari, shuningdek aqlning ilmni ifodalashdagi ishonchliligi va unga nisbatan bildirilgan e'tirozlar ilmiy asosda yoritiladi. Ishda aqlning o'ziga xos xususiyatlari mantiqiy tahlil va klassik manbalardagi qarashlar asosida bayon etiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, aqlni to'g'ri anglash ilmiy tafakkurning asosini tashkil etadi. Chunki har qanday ilmiy isbot, dalillash va rad etish jarayoni aqliy faoliyatga tayanadi. Aqlning mohiyatini inkor etish yoki uning bilishdagi rolini noto'g'ri talqin qilish ilmiy tafakkurda ziddiyat va noaniqliklarga olib keladi. Shu bois, aql masalasini tizimli va ilmiy yondashuv asosida o'rganish bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ishning asosiy maqsadi — aql tushunchasini ilmiy-nazariy jihatdan yoritish, uning bilish jarayonidagi o'rnini asoslab berish hamda aql orqali hosil bo'ladigan ilmning tabiatini izchil tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish orqali aqlning inson bilimidagi markaziy maqomi va ilmiy tafakkurdagi ahamiyati yanada oydinlashtiriladi.

ASOSIY QISM

Aql va naql dalilligi borasida qadimdan ixtiloflar bo'lgan. Ba'zi toifalar aqlni dalil sifatida qabul qilishgan. Naqlni e'tiborga olmaganlar. Boshqa bir toifa naqlni dalil bilib, aqlni qabul qilishmagan. Naqlda nima kelgan bo'lsa, aqlga to'g'ri keladimi yo'qmi u haq deb bilingan. Ba'zilar aqlni asos naqlni esa unga tobe qilganlar. Ba'zilar naqlni asos aqlni unga tobe qilganlar. Ba'zi bir toifalar esa aqlni ham naqlni ham e'tiborga olishmagan. Har kimning e'tiqodi o'zi uchun to'g'ri deb bilishgan. Ahli sunna ulamolari har bir ishda mukammal yechim berganidek ushbu masalani ham atroflicha o'rganib, o'z xulosalarini taqdim qilganlar. O'z da'volarini mustahkam dalillar bilan isbotlaganlar.

Aql va naqlning dalil ekanini isbotini keltirishdan oldin dalillning nima ekanini bilib olish kerak bo'ladi. Dalil lug'atda "murshid" ya'ni "to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi" narsaga aytiladi. Istilohiy ma'nosida borasida faqih va mutakallimlar o'rtasida xilof bor. Chunki faqihlarning ta'rifiga qat'iy ilmni ham zonniy ilmni ham ifodalaydigan dalillar kiradi. Mutakallimlarning ta'rifiga faqat qat'iy ilmni ifodalaydigan dalillar kiradi. Qat'iy ilmni ifodalaydigan dalilning ta'rifi:

Dalil - u haqida to'g'ri tafakkur yuritish bilan xabarga mansub talab qilingan ilmga yetishish mumkin bo'ladi¹. Qat'iy va zonniy ilmni ifodalaydigan dalilning ta'rifi biroz farq qiladi:

Dalil - u haqida to'g'ri tafakkur yuritish bilan qat'iy yoki zonniy bo'ladimi xabarga mansub talab qilingan narsaga yetishish mumkin bo'ladi².

Mavzuimizdan kelib chiqib qat'iy ilmni ifodalaydigan dalilga misol qilib olamni keltirish mumkin. Chunki olam borasida to'g'ri tafakkur qilinsa, u bizni o'zining yaratuvchisi borligiga olib boradi.

Moturidiy mutakallimlar aqlni insonni bilishga tayyorlaydigan ichki quvvat sifatida ta'riflaydilar. Aql orqali inson mavjudotlar ustida tafakkur yuritadi, sabab—oqibat munosabatlarini anglaydi va Haqni botildan ajratishga qodir bo'ladi.

Aqlning lug'aviy ma'nosi borasida "Nibros" kitobida quyidagicha keltiriladi: "Aql lug'atda bog'lam, tugun deganidir. Arablar tuyani bog'ladim ma'nosini ifodalashda aql so'zidan foydalanadilar. Bog'lash ma'nosi aql so'zining asliy ma'nosi bo'lib, so'ngra boshqa ma'nolarga ko'chirilgan. Bu o'rindagi aql dan murod: Insonni boshqa hayvonlardan ajratib turadigan idrok ma'nosidadir. Chunki aql insonni yomon ishlarni qilishdan bog'lab, tuyib turadi"³.

¹ Muhammad Muoz Mustafu al-Xon. Al-Qot'iyyu vaz zonniyyu fis subuti vad dalolati inda usuliyyin. – Dimashq: Dorul kalimit toyib. 1428-2007. – B. 22.

² Muhammad Muoz Mustafu al-Xon. Al-Qot'iyyu vaz zonniyyu fis subuti vad dalolati inda usuliyyin. – Dimashq: Dorul kalimit toyib. 1428-2007. – B. 22.

³ Alloma Abdulaziz Farhoriy. Nibros ala sharhi aqoid. – Istanbul, Maktabatu Yosin: 1433-2012. – B. 126.

Aqlning istelohiy ma'nosi nima ekani qadimdan ulamolar orasida katta bahslarga sabab bo'lgan. Alloma Taftazoniy o'zlarining mashhur "Aqoidun Nasafiyya"ga yozgan sharhlarida aqlga berilgan uchta ta'rif keltirib, mazmunan ikki qismga taqsimlaydi:

Ammo aql(ga keladigan bo'lsak): Aql nafsdagi quvvat bo'lib, u orqali nafs ilm va droklarga tayyor holga keladi⁴

Ushbu ta'rif ahli sunna hamda Mo'tazila toifasiga mansub mutakallimlar tomonidan aytilgan. Imom Faxriddin Roziy kabi ulamolardan quyidagi ta'rif naql qilingan:

(Quyidagi ta'rif yuqoridagi ulamolar) **qovlining ma'nosidadir: Aql insondagi "tabiiy sifat" bo'lib, ilm barcha vositalar salomat bo'lganida o'sha sifatga tobe bo'ladi⁵.**

Bu ta'rifda falsafiy qarash mavjud. Chunki vositalar salomat bo'lganida ilm unga tobe bo'lishi ijob⁶ yo'lga ko'ra ekaniga ishora bor. Kitobning ba'zi sharhlarida aqlni "tabiat" deb sharhlagani ham buni tasdiqlaydi. Aql nafsdagi Alloh o'rnatib qo'ygan quvvat ekanida ahli sunna va mo'tazililar orasida farq yo'q. Balki o'sha vositalar salomat bo'lganida ilmning qanday hosil bo'lishida qarashlar turlicha. Ahli sunnaga ko'ra sabablar topilganda ilmni Alloh yaratib beradi. Mo'tazililarda tavallud yo'lga ko'ra hosil bo'ladi. Ushbu ta'rifdan nafs aql yordamida anglashi va idrok qiluvchi ekani tushuniladi. Demak, yuqoridagi ikki ta'rifga ko'ra aql nafsdagi quvvatdir.

(Yana boshqa o'rinda) **aytilganki, "aql" bu – "javhar" hisoblanadi. Ushbu aql bilan esa, tasavvurdagi noma'lum narsalar dalillar oraqali va hislar mushohada qilish orqali idrok etiladi⁷.**

Bu - faylasuflar va ba'zi mutakallimlarning aqlga bergan ta'rifidir. Bu ta'rifda aqlni javhar ekani aytiladi. Faylasuflarda "javharul mujarrodot" tushunchasi bor. Bu bo'linmas,

⁴ Muhammad Yosir ibn Azizurrohmān al-Hanafiy. Tahzibul arvoḥ an-Nasafiyya fi taysiri sharḥul aqoidin Nasafiyya. – Britaniya; 1432 h. 2010 m. – B. 34.

⁵ Abdulqodir Abdur Rahim. Aqoid (O'quv uslubiy qo'llanma). – Toshkent: Shamsuddinxon Boboxonov. 2024. – B. 69.

⁶ Iroda aralashmasdan illat topilgani uchun ma'lul ham bo'lishi lozimligi mantig'idan kelib chiqqan hukm.

⁷ Abdulqodir Abdur Rahim. Aqoid (O'quv uslubiy qo'llanma). – Toshkent: Shamsuddinxon Boboxonov. 2024. – B. 69.

joy olmas va boshqasi bilan birikmas ma'nosida. Ularga ko'ra aql ana shunday javharul mujarrodlardan hisoblanadi. Ularning ta'kidlashicha, sezgilar orqali anglab bo'lmaydigan g'aybiy masalalarni aql vositalar - ya'ni muqaddimalarni tartibga solish orqali idrok qiladi. Sezgilar bilan anglash mumkin bo'lgan narsalar esa bevosita sezgi a'zolari orqali idrok qilinadi.

TAHLIL

Birinchi va ikkinchi ta'rif umumiy ma'noda aqlni "araz"⁸ ekanini, uchinchi ta'rif esa araz emas, "javhar"⁹ ekanini ifodalamoqda. Shuning uchun uchinchi ta'rif avvalgi ikkitasidan tubdan farq qiladi. Alloma Taftazoniy ham avvalgi ikki tarifga moyilligini hamda uchinchisiga qo'shilmasligini "aytildi" iborasi bilan bildirib qo'ymoqda.

Demak, aql mutakallimlarga ko'ra nafsda qoim bo'ladigan, idrok qiluvchi quvvat. Faylasuflarga ko'ra o'zi mustaqil bor bo'lgan, idrok qiluvchi javharul mujarrodlardan hisoblanar ekan.

Aql aqidalarni isbot qilishda dalil bo'la oladimi?

Aql masalasiga tarixiy va nazariy yondashuvni tahlil qilar ekanmiz, avvalo shuni ta'kidlash joizki, aql ham ilm hosil bo'lishiga xizmat qiluvchi vositalardan biridir. Nima narsa aql tomonidan bevosita, ya'ni badaxatan idrok etilsa, u "zaruriy ilm" deb ataladi. Masalan, "butun o'z qismidan kattadir" degan hukm tafakkur talab qilmaydigan, inson tabiatan anglaydigan zaruriy bilimdir.

Ba'zi mutakallimlar va mantiqshunoslarning fikricha, aql - insondagi tabiiy sifat bo'lib, ilmning vujudga kelishi barcha bilish vositalarining salomatligiga bog'liq holda mana shu tabiiy sifat orqali ro'y beradi. Boshqa manbalarda esa aql "javhar" sifatida ta'riflanadi. Ya'ni, u mustaqil mavjud bo'lgan mohiyat bo'lib, ana shu aql vositasida inson tasavvuridagi noma'lum narsalarni dalillar orqali va his-tuyg'ularning mushohadalari orqali idrok qiladi.

⁸ O'zi mustaqil qoim bo'la olmaydi, balki boshqasida qoim bo'ladi.

⁹ O'zi mustaqil qoim bo'la oladigan mumkin narsa.

Aqlning dalil ekanini Abu Hafs Umar Nasafiy o'zining mashhur aqoid matnida keltirib o'tgan. Buni Alloma Taftazoniy kengroq sharhlagan.

Ammo aql(ga keladigan bo'lsak,) u ham ilm vositalaridan biridir¹⁰.

Demak, Moturidiylikda aql shunchaki yordamchi vosita emas, balki bilim hosil bo'lishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Demak aql orqali yangi ilmlarni kashf qilish mumkin. Zaruriyotlarni aql to'g'ridan to'g'ri bilishida ixtilof yo'q. Ushbu matn sharhida Alloma Taftazoniy nazariyot masalalarining barcha turida mulhidlar va sumaniylar, ilohiyot bobida esa ba'zi faylasuflar xilof qilishini aytib o'tganlar. Ularning bunday xulosaga kelishlarining sababi: agar aql ilmga olib boruvchi vositalardan bo'lsa oqillar o'rtasida ixtilof bo'lmasligi kerak edi. fikrlardagi bir-biriga zidlik topilmas edi. Ammo voqelikda buning aksi bo'lmoqda, degan iddaolari bo'lgan.

Lekin bu iddaolarni asossiz ekanini ulamolarimiz quyidagicha isbotlab, tushuntirib beradilar: Ixtiloflarning bo'lishi, fikrlarning qarama-qarshi kelib qolishi ba'zi aqliy tafakkurlarni to'g'ri bo'lmaganidandir. Agar tafakkurning barcha bosqichlari to'g'ri amalga oshirilsa aqlning ilmni ifodalashida muammo yo'q. Ularning ixtiloflarning bo'lishi ilmni ifodalamasligiga dalildir degan gaplari aqliy tafakkurdan kelib chiqib aytilgandir. Bu esa ularning mazhabi va gaplari orasida tanoquz yuzaga keladi. Chunki aqliy tafakkur aqliy tafakkurni inkor qilayotgan bo'ladi. Agar ular sizlarning bu raddiyangiz fosidni fosid bilan rad qilish bo'ladi. Chunki biz aytgan gap aslida bekorchi gap sizlar keltirgan gap ham bekorchi. Bu narsa aqliy tafakkur ilmni ifodalamaydi degan gapimizga xalal bermaydi, deb iddao qilsalar aytamizki: sizlarning aqliy tafakkur ilmni ifoda qilmaydi degan fikringiz yoki biror ma'no ifodalaydi yoki ifodalamaydi. Uchinchi holat yo'q. Agar biror ma'no ifodalasa bekorchi gap bo'lmaydi. Agar biror ma'no ifodalamasa ma'no ifodalagan boshqa bir fikrga qarshi tura olmaydi. Har ikki holatda ham davo qilgan maqsadingizga zid kelib qoladi.

¹⁰ Abdulqodir Abdur Rahim. Aqoid (O'quv uslubiy qo'llanma). – Toshkent: Shamsuddinxon Boboxonov. 2024. – B. 69-70.

Agar aytilsaki: aqliy tafakkur ilmni ifoda qilishi zaruriyotlardan bo'lsa, unda hech qanday xilof bo'lmasligi kerak edi. Xuddi bir ikkining yarmi ekanida ixtilof yo'q bo'lgani kabi. Bunga javoban aytamiz: gohida zaruriyot masalalarida ham xilof bo'ladi, lekin bu xilof sog'lom tafakkurdan kelib chiqmaydi. Balki haqni qabul qilishdan qaysarlik sabab bosh tortish yoki fahmdagi nuqsondan bo'lishi mumkin. Chunki insonning aqli yaratilishiga ko'ra tafovutli bo'ladi. Bunga barcha oqillar ittifoq qilganlar hamda xabarlar ham shu ma'noni takidlaydi. Shuning uchun zaruriyotlarda bo'ladigan xilofni haqiqiy ma'nodagi xilof deb bo'lmaydi.

Agar aytilsaki: aqliy tafakkur ilmni ifoda qilishi nazariyotlardan bo'lsa nazarni nazar bilan isbot qilish bo'lib, davr yuzaga keladi. Davr esa botil tushuncha hisoblanadi. Aytamizki: nazariyotlar gahida maxsus nazar bilan isbot qilinadi. Maxsus nazardan esa nazar deb ta'bir berilmaydi. Shuning uchun bu holatdan davr kelib chiqmaydi. Masalan: olam o'zgaruvchidir. Har bir o'zgaruvchi narsa hodisdir. Bu qoziyyalar (nazar) olamning hodis ekanini zaruratan ifoda qiladi. Bu ifoda qilish nazarning xususiyatidan emas. Balki, to'g'ri va shartlariga to'liq rioya qilinganidandir. Shuning uchun barcha shartlariga rioya qilingan sog'lom tafakkur ilmni ifoda qiladi deb ayta olamiz.

Nima narsa undan (aqldan) badohat bilan aniq bo'lsa, u zaruriy ilm bo'ladi. Xuddi barcha narsani bo'lagidan katta bo'lishini bilish kabi¹¹.

Aql orqali hosil bo'ladigan ilm hech qanday tafakkur va o'ylashsiz hosil bo'lsa, bu zaruriy ilm hisoblanadi. Masalan: har bir butun narsa o'zining bir qismidan katta bo'lishini bilish kabi. Buni bilish uchun o'ylab tafakkur yuritishga hojat yo'q. Butun, qism va katta so'zlarining ma'nosini bilishning o'zi shunday xulosa chiqarishga kifoya qiladi. Agar kimdir shu masalada o'ylanib hukm bera olmayotgan bo'lsa, demak u butun va qism so'zlarining ma'nosini tasavvur qila olmayotgan bo'ladi. Biroq sumaniylar, mulohidalar va ayrim falsafiy oqim vakillari nazariy masalalarda aqlni ilm hosil bo'lishining sababi sifatida tan olmaganlar. Hatto ba'zi faylasuflar ilohiyot masalalarida aqlning bilishga sabab

¹¹ Abdulqodir Abdur Rahim. Aqoid (O'quv uslubiy qo'llanma). – Toshkent: Shamsuddinxon Boboxonov. 2024. – B. 69-70.

bo‘la olmasligini iddao qilganlar. Ularning nazarida, aqldagi turli ixtiloflar, bir-biriga zid fikrlar aqlning ilm hosil qilishdagi ishonchliligini shubha ostiga qo‘yadi.

Ularga beriladigan ilmiy javob shuki: aqlning ilm hosil qilish sababi bo‘lishiga doir ixtiloflar - aqlning o‘zida emas, balki fikrlash jarayonidagi xatolarda namoyon bo‘ladi. Xato fikrning mavjudligi esa to‘g‘ri fikrning ham bo‘lishini inkor etmaydi. Chunki o‘sha faylasuflarning o‘zlari ham aqlning ilm hosil qilishini inkor etish uchun dalillarni aynan aqlning nazari (mantiqiy mulohaza) orqali keltirganlar. Bu esa ularning iddaosi o‘ziga zid bo‘lib, da’volarining asossizligini namoyon qiladi.

Agar ular bu mulohazani “ noto‘g‘ri fikrni boshqa bir noto‘g‘ri fikr bilan rad qilish” deb talqin qilishsa, bizning javobimiz quyidagicha bo‘ladi:

Agar aql bir narsani ifodalasa, u faqat to‘g‘ri bo‘ladi; agar bir narsani ifodalamasa, u boshqa fikrga zid ham bo‘la olmaydi. Demak, zidlik fikrlarning noto‘g‘ri qo‘llanishidan kelib chiqadi, aqlning o‘zidan emas.

Aql orqali “ badohat yo‘li bilan” hosil bo‘ladigan ilm - ya’ni hech qanday tafakkur talab qilmaydigan darhol idrok etiladigan bilim - “zaruriy ilm” deyiladi. Masalan, “butun qismidan kattadir” degan hukm, alohida bir butun narsani kuzatishga bog‘liq emas. Inson avvalo “butun”, “qism” va “katta” tushunchalarining ma’nosini tasavvur qiladi, so‘ng tabiiy ravishda butunning qismdan kattaligini anglaydi.

Agar kimdir tasavvur bosqichini o‘tmasdan, muayyan bir narsaga qarab, masalan: “qo‘l ham tananing bir qismi, nega u tana-dan katta bo‘lmasligi mumkin?” deb o‘ylasa, bu holatda u “qism” va “butun” tushunchalarining haqiqiy ma’nosini tasavvur qilmagan bo‘ladi. Ya’ni, muayyan narsaga bog‘lab hukm chiqarish, umumiy tushunchalarni noto‘g‘ri qo‘llashdan kelib chiqadi.

Shunday qilib, aql zaruriy ilmning manbai, nazariy bilimning mezoni va dalillarning tartibga soluvchisidir. Aqlni inkor etgan taqdirdagina na ilmiy isbot, na rad, na dalillashning o‘zi mazmunga ega bo‘ladi.

Qaysi narsa (aqlda) istidlol bilan aniq bo‘lsa, u iktisobiy ilm bo‘ladi¹².

¹² Abdulqodir Abdur Rahim. Aqoid (O‘quv uslubiy qo‘llanma). – Toshkent: Shamsuddinxon Boboxonov. 2024. – B. 69-70.

Kasb bilan hosil bo'lgan ilmga iktisobiy ilm deyiladi. Kasb esa ilm sabablarini ixtiyoriy ravishda ishlatish degani. Istidloliy masalalarda aql va tafakkurni ishlatish bo'lsa, mahsusotlarda sezgi azolarni ishga solish bilan bo'ladi. Dalil borasida tafakkur qilish ham ikki xil bo'ladi:

1. Limmiy dalil. Bunda illatdan ma'lulga dalillaniladi. Masalan: bir joyda olovni ko'rib, uning tutuni ham borligini bilish.
2. Inniy dalil. Bunda ma'luldan illatga dalillaniladi. Masalan: bir joyda tutunni ko'rib, u joyda olov bor ekanini bilish.

“Aqliy dalil: Talab etilgan narsaga qo'shimcha tayinlovga ehtiyoj tushmasdan dalolat qiladigan dalildir”¹³. Ya'ni aqliy dalil inson tafakkuri orqali haqiqatga erishish vositasi hisoblanadi. Bu tafakkur jarayonida aqlan boshqa vositalar ishtirok etmaydi.

XULOSA

Mazkur ilmiy ishda **aql** tushunchasi mustaqil ravishda tahlil qilinib, uning lug'aviy va istilohiy ma'nolari, ontologik maqomi hamda bilish jarayonidagi o'rni ilmiy asosda yoritildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, aql insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan, bilish va idrok qilishga xizmat qiluvchi asosiy ichki quvvat ekani aniqlanadi.

Aqlning lug'aviy jihatdan “bog'lash, tiyib turish” ma'nosini anglatishi uning funksional mohiyatini ifodalaydi, ya'ni aql insonni noto'g'ri xulosa va nomunosib xatti-harakatlardan tiyuvchi idrok mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Istilohiy ta'riflar esa aqlning mohiyati borasida ulamolar o'rtasida turli yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, mutakallimlar aqlni nafsda qoim bo'ladigan idrok quvvati sifatida talqin qilgan bo'lsalar, ayrim faylasuflar uni mustaqil mavjud bo'lgan javhar sifatida ta'riflaganlar. Bu xilma-xillik aql masalasining murakkab va ko'p qatlamli ekanini tasdiqlaydi.

Ilmiy tahlil davomida aql orqali hosil bo'ladigan bilimlar **zaruriy** va **iktisobiy** turlarga bo'linishi asoslab berildi. Zaruriy ilm aql tomonidan bevosita, hech qanday tafakkur va istidlolsiz idrok etilsa, iktisobiy ilm tafakkur, istidlol va dalillarni tartibga

¹³ Muhammad Muoz Mustafu al-Xon. Al-Qot'iyyu vaz zonniyyu fis subuti vad dalolati i'nda usuliyyin. – Dimashq: Dorul kalimit toyib. 1428-2007. – B. 32.

solish orqali hosil bo‘ladi. Ushbu tasnif aqlning faqat tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki yangi bilimlar hosil qiluvchi faol vosita ekanini ko‘rsatadi.

Shuningdek, aqlning ilmni ifodalashida yuzaga keladigan ixtiloflar aqlning o‘ziga emas, balki tafakkur jarayonidagi xatolarga, shartlarga rioya qilinmasligiga yoki fahmdagi nuqsonlarga borib taqalishi isbotlandi. Agar tafakkur barcha mantiqiy shartlarga muvofiq tarzda amalga oshirilsa, aqlning ilm hosil qilishdagi ishonchliligi saqlanib qoladi. Aqlni inkor etish esa, o‘z mohiyatiga ko‘ra, mantiqiy ziddiyatni keltirib chiqaradi, chunki inkorning o‘zi ham aqliy tafakkurga tayangan holda yuzaga chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alloma Abdulaziz Farhoriy. Nibros ala sharhi aqid. – Istanbul, Maktabatu Yosin: 1433-2012.
 2. Muhammad Muoz Mustafo al-Xon. Al-Qot’iyyu vaz zonniyyu fis subuti vad dalolati i’nda usuliyyin. – Dimashq: Dorul kalimit toyyib. 1428-2007.
 3. Abdulqodir Abdur Rahim. Mashhur aqid matnlari. – Toshkent: Shamsuddinxon Boboxonov. 2024.
 4. Abu Homid G‘azoliy. Qonunut ta’vil. Mahmud Biyjuv ta’liqi bilan. 1413-1993.
 5. Doktor Ahmad Sa’d Damanhuriy. Nazariyyatul ma’rifa i’nda ahli sunna val jamoa. – Qohira: Nur. 2018.
- Avvod Mahmud Avvod Solim. Al-Madrosatul kalomiyya al-Moturidiyya dirosatu tahliliyya fil manhaj val mazhab. – Qohira: Dorul imomur Roziy. 2024.